

**JADID MA'RIFATPARVARLARINING O'LKA
IJTIMOIY-MANAVIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNI**

Andijon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Nigora Mahmudjonovna Atabayeva

Andijon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Sodiqova Muhabbat Salimovna

Andijon davlat pedagogika instituti

Oligofrenopedagogika yo'nalishi 101-guruh talabasi

Nematullaeva Begoyim Shuxratjon qizi

Xabibullaeva Iymona Xasanboy qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada vatanparvar jadidlarimizning faoliyati va ularning barkamol avlod tarbiyasi masalalari yuzasidan qarashlari haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan.

Аннотация: В этой статье дается краткая информация о деятельности наших джадидов и их взглядах на вопросы воспитания гармоничного поколения.

Annotation: This article provides brief information about the activities of our jadids and their views on the issues of harmonious generation education.

Kalit so'zlar: Jadid, jadidlar, sho'ro tuzimi, mafkura, ma'rifatparvarlik, iqtisodiy tazyiqlar.

Ключевые слова: Джадид, джадиды, рассол, идеология, просвещение, экономическое давление.

Keywords: Jadid, jadids, shaura formation, ideology, enlightenment, economic pressures.

XIX asrda ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan nom olgan va XX asr boshida rivojlangan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar nomoyondalari - Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Munavvar Qori, Abdulla Avloniyilar ijodi va faoliyatida yana ham kuchaydi. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o'lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g'oyasini ilgari surdilar.

Barkamol avlod tarbiyasida jadidlar faoliyatining muhim xususiyati shunda ediki, avvalambor Turkistonni o'rta asrga xos tarqoqlikdan ozod qilish, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish hamda ma'rifatparvarlik kabi masalalar edi. Bunday g'oyalar avvalambor yosh avlodni milliy, ma'naviy hamda g'oyaviy jipslashtirish, ularni o'lka taqdiriga dahldorlik tuyg'usi bilan yashashga jalb etish kabilarda aks etadi. Turkiston jadidchiligidagi asosiy g'oyaviy-nazariy yo'nalish Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Cho'lponlar tomonidan ilgari surilgan bo'lib,

Turkiston xalqi va davlatini qurish, zamonaviy taraqqiyot yo'lidan borishni taklif etganlar. Turkiston jadidlari chor hukumati istibdodidan qoloq ahvolga tushib qolgan Turkiston mahalliy aholini, jumladan o'sib kelayotgan yoshlarni ijtimoiy-siyosiy, madaniy-marifiy turmishini, ong-saviyasini ko'tarish, taraqqiy ettirish maqsadida juda katta madaniy ishlarni olib bordilar. Mahmudxoja Behbudiy ta'kidlaganidek, "Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobig'a tasavvul (vosita) va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzalasida bo'lgan maktabi ibtidoiy ila intiboh va islohot jarchisi bo'lgan milliy matbuot qayratlu yoshlarning harakati maorif parvaronlarini soyasida vujudga keldi".

Jadidlar ta'limoti - o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni o'z ketidan ergashtira oladi.

Jadidlar voyaga yetgan yoshlar Turkiston kelajagi, ravnaqi uchun kurashchi bo'lib yetishishi kerakligini uqtirdilar va bunda ular har xil illatlardan xalos bo'lishlarini ta'kidlaydilar. Misol uchun, Mahmudxo'ja Behbudiy yosh yigitchalarni turli xil yomon illatlardan qaytargan, uning oqibatlaridan o'quvchilarni turli xil yomon illatlardan qaytargan, uning oqibatlaridan o'quvchilarni xabardor qilgan va Samarqandda ruslar tomonidan ochilgan pivo dokonlarini qattiq tanqid ostiga oladi. Uning fikricha, bunday do'konlar masjid va madrasalarning yaqinida bo'lib, bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Mahmudxo'ja Behbudiy barchani kelajak avlodni sog'lom o'stirishga chorlaydi. Sog'lom aqlli, bilimli farzandlarimiz o'sib ulg'ayib, o'qib, ilm egallab, Turkistonga xizmat qiluvchi shifokor, xuquqshunos, iqtisodchi va boshqa zamonaviy mutaxassislar yetishib chiqishini orzu qilgan. Sog'lom farzandlarni tarbiyalash uchun o'qib-o'rganib ilmi, ma'rifatli, eng asosiysi esa ota-onalar o'z vaqtida farzandlarini zamonaviy fanlarini egallashga yordam berishlarini ta'kidlaganlar. Munavvarqori Abdurashidxonov bolaning ta'lim va tarbiya olishida ota-onaning javobgarligi haqida so'z yuritib, o'z farzandining ma'rifatli bo'lishi uchun qo'llaridan kelgancha harakat qiladigan zotlar mavjudligini ta'kidlagan. Bularning yorqin nomoyondalaridan biri Munavvarqori 1901-yili Toshkent shahrida ilk usuli savtiya maktabini ochadi. Maktabda darslarni tashkillashtirish uchun Munavvarqori dastlab Qrim va Tataristondagi o'qituvchilar tuzgan dastur va adabiyotlardan foydalanadi. 1907-yilga kelib esa o'zi "Adibi avval" darsligini tuzadi. O'zbek tilining deyarli ilk alifbolaridan bo'lgan bu kitob Saidrasul Aziziyning darsligi bilan oldinma-keyin bosilib chiqdi. U tez orada Turkistondagi barcha maktab o'qituvchilari tomonidan yaxshi kutib olindi va amaliyotga tatbiq qilindi. Arxiv hujjatlariga qaraganda Munavvarqorining bu kitobi S. Aziziyning "Ustodi avval" kitobi bilan barobar rus-tuzem maktablarida ham o'qitilgan. Munavvarqorining "Adibi avval" kitobi Mahmudxo'ja Behbudiyning tojik bolalari uchun mo'ljallangan (1906) "Alifboi maktabi islomiya" va "Salim-ul-avval" kitoblaridan har jihatdan farq qilar edi. Shu bois uning darsligidan rus-tuzem

maktablarida foydalanish uchun ruxsat beriladi. U 1907-yilning oxirida ikkinchi darsligi “Adibus-soniy” ni nashr ettiradi. 1910 – 1911-yillardan boshlab usuli jadid maktabini ochgan A’zamxon, Muslimxon (Munavvarqorining akalari), Hasan qori Xoniy, Eshonxo’ja Xoniy, Nizomiddin Husainov, Rustambek Yusufbekov, Sa’dulla qori Abdullayev va boshqa ko’pgina toshkentlik, qo’qonlik, namanganlik, farg’onalik domlalar A.Ibodov, A.Shukurov asarlari bilan bir qatorda “Adibus-soniy”ni ham darsda qo’llay boshladilar. Ko’pgina maktablarda Munavvarqorining 1–4-sinflar uchun tuzgan dasturi joriy qilingan edi. Maktab o’quv tizimini chuqur o’rgana boshlagan Munavvarqori bular bilan cheklanmay, dasturni tobora takomillashtirib boradi. 1912-yilga kelib, o’quvchilarga husnixat, jug’rofiya, islom tarixi, turk qavmlari tarixi fanlarini oshkora o’qita boshlaydi, maktab ostonasiga qorovul qo’yib, ijtimoiy sohalaridan saboq beradi. U mahalliy o’qituvchilar orasida birinchi bo’lib “Namuna” maktabini tashkil qiladi hamda rus tilini o’qitish masalasini hukumat oldiga ko’ndalang qo’yadi. Bu taklifni mustamlaka hukumati rad etadi. Lekin Munavvarqori ham hujumni susaytirmadi va o’z maktabida rus tili o’qitilishiga erishdi. Yana bir ko’zga tashlangan islohotchi shaxslaridan biri Abdurauf Fitrat (1886 – 1938) bo’lib, uning faoliyati va ijodi yaqin tariximizning eng porloq sahifalaridan birini tashkil qiladi, desak mubolag’a bo’lmaydi. Abdurauf Fitrat shubhasiz XX asr birinchi choragi Markaziy Osiyo ziyolilarining eng ko’zga ko’ringan va ta’sir doirasi kuchli bo’lgan vakillaridan biri hisoblanadi. U yozuvchi, shoir, jurnalist, siyosiy arbob va Turkiston jadidchiligining g’oyaviy yetakchilaridan biri sifatida tanilgan. XIX asrning oxirigi choragida Qrimda dunyoga kelgan “usuli jadid” maktablari Rossiya imperiyasining musulmonlar yashaydigan mintaqalarida keng yoyila boshladi. Maktablar Turkistonga ham yoyildi. Lekin bu maktablar dinga zid kelishini da’vo qilgan ulamo qarshiligiga duch keldi. Ayniqsa, bunday qarshilik Buxoroda 1908-yilda ochilgan maktab atrofida juda katta janjalga sabab bo’ldi. Fitrat ana shu maktab janjali ta’sirida yaratgan “Munozara” asari yangi usul maktablardan musulmon dunyosi shariat yuzasidan foydalanishi mumkinligini isbot eta oldi. Faqat shu asarning bosilib chiqishi tufayligina Buxoroda yangi usul maktablari qayta ochildi va ulardan mulla-mudarrislarining tavqi la’natlari olib tashlandi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg'onishda va ravnaqida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy yo'l bilan yechish yo'llarini jadidlar o'z maqola va asarlarida ko'rsatganlar. Yoshlarni o'qishga, bilim olish va ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish, madaniy-ma'naviy saviyatini yuksaltirishga chorlaydi. Jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarining zamonaviy bilimdon, mutaxasislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, ular yurtini obod, farovon etishlariga ishonganlar. Chunki jadidlarning o'zlari

ham yosh bo'lganliklari uchun mahalliy yoshlarning muammolari, fikr-g'oyalari turli voqealarga munosabati ularga juda yaqin va tushunarli edi. Jadidlar faoliyatida madaniyatga, ma'rifatparvarlikka, yangilikka, taraqqiyotga intilish, yoshlarni, butun xalq ommasini shunga da'vat etish g'oyalari ularning umrlari oxirigacha yetakchi fikr bo'lib qoldi. Har qanday og'ir sharoitda ular o'z qarashlarini o'zgartirmadilar. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy faoliyatlarini tahlil qilib va ularning asr boshidagi g'oyaviy qarashlarini kelib chiqqan holda shuni aytishimiz o'rinliki, jadidlar Turkiston xalqlarini savodsizlik, qullik, qashshoqlikdan chor hukumati mustamlakachiligidan qutqarishga bel bog'laganlar va shu yo'lda yoshlar asosiy kuch bo'lganligini tushunib, ularning saviyasini oshirish uchun ko'p sa'y-harakatlar qilganlar. Yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat va davlatda munosib o'rin egallashlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi jadidlarning fikrlari bugungi mustaqil O'zbekistonda namoyon bo'lib turmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oblomurodov N, Hazratqulov A va boshqalar. O'zbekiston tarixi.(o'quv qo'llanma)T.2011
2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.T:O'zbekiston.1999.B.385
3. Behbudiy M. Muhtaram yoshlarga murojaat. Oyna-1914. 41-son
4. M.Abdurashidxonov. Xotiralarimdan(Jadidchilik tarixidan lavhalar). Sharq-2001. B108-109